

## Omon Matjon ijodida metafora orqali ma’nosi ko‘chgan so‘zlarning ifodalanishi

Ilhombayeva Mahliyo

UrDU O‘zbek filologiyasi fakulteti:

o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 223-guruh talabasi

[ilhombayevamahliyo@gmail.com](mailto:ilhombayevamahliyo@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada Omon Matjon she’riyatida qo‘llangan ko‘chma ma’noli so‘zlarning metafora usulida ma’no ko‘chishi tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar.** Ko‘p ma’nolilik, obraz, metafora, ko‘chma ma’no, kontekst, o‘xshashlik.

**Абстрактный.** В статье анализируется метафорическая передача значения. слов с переносным значением, используемых в поэзии Амона Маджона.

**Ключевые слова.** Двусмысленность, образ, метафора, метафора, контекст, сравнение.

**Abstract.** The article analyzes the metaphorical meaning transfer of words with a figurative meaning used in the poetry of Amon Matjon.

**Keywords.** Ambiguity, image, metaphor, metaphor, context, simile.

Tilimizdagi so‘zlarning juda kata qismi ko‘p ma’nolidir, chunki kishilar o‘zining kundalik hayotida yangi paydo bo‘lgan tushunchalarning har biri uchun alohida-alohida so‘zlar qo‘llayveradigan bo‘lsa, so‘zlarning soni o‘ta ko‘payib ketib, ularni xotirada saqlash mumkin bo‘lmay qolardi. Natijada tildan foydalanish ham qiyinlashib, u sekin-asta yaroqsiz holga kelib qolgan bo‘lar edi. Shuning uchun ham har qaysi tilda sanoqli til birliklarining tilda ilgari mavjud bo‘lmagan turli xil kombinatsiyalaridan cheksiz tushuncha va fikrlarni ifodalashga harakat qilinadi. Ana shunday harakat tufayli tilda ilgari mavjud bo‘lgan so‘zlarga yangi-yangi ma’nolar yuklanadi. Natijada, ko‘p ma’noli so‘zlar maydonga keladi.<sup>1</sup>

Badiiy ijodda shoir va yozuvchilar doimo so‘zlarni o‘z ma’nosidan tashqari yangicha ma’noda qo‘llashga intiladilar. Bu qonuniyatdir. Chunki so‘zlarning tasviriy imkoniyatlaridan mumkin qadar keng foydalanishga intilish, kutilmagan, g‘ayriodatiy, yangi obrazlar yaratish ehtiyoji, ifodani yangicha tarzda berish zarurati

<sup>1</sup> Маруза Ж. Словарь лингвистических терминов. – М.: УРСС, 2004.

ijodkorlarni ana shunday yo‘l tutishga undaydi. Shu ehtiyoj tufayli adiblarning dunyoqarashigagina xos bo‘lgan, faqat ularning asarlaridagina uchraydigan, umumxalq tilida ommalashib ketmagan so‘z ma’nolari, favqulodda o‘zgacha qo‘llashlar- so‘zlarning ko‘chma ma’nolari vujudga keladi. Shunday so‘zlardan mohirona foydalangan ijodkorlarimizda biri Xorazm diyorining atoqli adibi Omon Matjonidir.

Omon Matjon she‘rlarida so‘zlarning ko‘chma ma’noda ishlatilishini ko‘proq fe‘l so‘z turkumida uchratishimiz mumkin. So‘zimizning isbotini Omon Matjonning “Eshigingda o‘taman...” she‘rida ko‘rishimiz mumkin:

Kuz **yoysa** ham yo‘llarga xazon,  
Qor **ko‘msa** ham borliqni butun,  
Ko‘klam kelib, **ursa ham xandon**,  
Eshigingdan o‘turman bir kun.<sup>2</sup>

Baytga e‘tibor qaratsak o‘zgacha ma‘no ifodalayotgan so‘zlarga bir qarashda ko‘zimiz tushadi. Masalan, kuzning xazon yoyishi, qorning borliqni ko‘mishi va ko‘klamning xandon urib kulishi so‘zlarning matn ichida o‘z ma‘nosidan tashqaridagi ma‘nosini ifodalash uchun xizmat qilgan.

So‘zlardagi ko‘p ma‘nolilik hamda so‘z ma‘nolarining nozik attenkalari badiiy adabiyotda muhim tasviriy vosita sifatida, ayniqsa, keng qo‘llanadi. So‘zlarni to‘g‘ri ma‘nolaridan tashqari, xilma-xil ko‘chma ma‘nolarda qo‘llash bir necha turli bo‘lib, bular metafora, metanimiya, sinekdoxa hamda vazifadoshlikdir.<sup>3</sup> Shular ichidan metafora badiiy adabiyotda juda keng qo‘llanadigan turi bo‘lib, she‘rlarda ko‘proq uchratishimiz mumkin.

Metafora (yunoncha metaphora-ko‘chirish, ko‘chirma, istiora)-o‘xshashlikka asoslangan ma‘no ko‘chishi bo‘lib, bunda narsa va hodisaning rang, shakl, harakat-holat xarakteri, o‘rin va paytga munosabati jihatdan o‘xshashligiga asoslanadi. 3 Metaforada ma‘no ko‘chishini ham shakliy, belgi, joylashgan o‘rin hamda harakat o‘xshashligiga ko‘ra ajratish mumkin.<sup>4</sup>

**Xayolimda yashar** bir nargis,  
Alvon-alvon tong **va’da etar**.  
Lekin uning alvon rangini

<sup>2</sup> O. Matjon. Maqsudam. Adabiyot.- T.: 2001.

<sup>3</sup> Пинхасов. Хозирги узбек адабий тили. Укитувчи. – Т.: 1969.

<sup>4</sup>Пинхасов. Хозирги узбек адабий тили. Укитувчи. – Т.: 1969.

Tongda quyosh **olar-da ketar**.<sup>5</sup>

“ Xayolimda yashar bir nargis...” misralari bilan boshlanuvchi she`ridagi fe`llarga qaraydigan bo`lsak matndan tashqarida o`zi bilan umuman ma`no hosil qilmaydiga so`zlar bilan birikkan. **Yashamoq** fe`li izohli lug`atlarda “ ma`lum muddat umr ko`rmoq; hayot kechirmoq; tirik yurmoq”<sup>6</sup> kabi ma`nolarni anglatadi. Ammo bu yerda aynan o`zini ma`nosi emas, balki ko`chma ma`noda ya`ni metafora usulida ma`no ko`chishini hosil qilgan. Bu yerdagi yashamoq fe`li “mavjud bo`lmoq, saqlanmoq” ma`nosida qo`llangan. **Va`da etmoq** fe`li “nimadir qilish qilmaslikka so`z bermoq”<sup>7</sup> ma`nosida ishlatiladi. Aynan bu yerda ham shu ma`noda qo`llangan ammo insonga xos bo`lgan xususiyat tong so`ziga ko`chirilib ko`chma ma`no hosil qilgan. Oxirgi misradagi olar-da ketar so`zi esa quyoshga bog`lanib metafora hosil qilgan.

Bu og`och kimnidir sog`ingan,  
Boshiga gulbargak taqmoqda.  
Saharda uyg`onib, qaygadir-  
Oyog`i uchida... boqmoqda

Yuqoridagi “Ayriliq” she`ridan olingan misralarda qo`llangan fe`llar ham ko`chma ma`noda metafora usulida ma`no ko`chishini hosil qilgan. Masalan, **sog`ingan, gulbargak taqmoq, uyg`onmoq, boqmoq** fe`llari insonga xos bo`lgan mavhum tusunchani ifodalaydi, ammo misralarda bu ma`no jonsiz narsalarga ko`chib ko`chma ma`no hosil qilgan.

Metaforda so`z ma`nos o`zgaradi, tushuncha yo tasavvur esa tamoman o`zgarmaydi, balki uning dastlabki ma`lum belgisi qolgan bo`ladi. Masalan, so`z san`atining boshi folklordir. Misolda keltirilgan bosh so`zi ko`chma ma`noda bo`lib paytga va o`ringa xos o`xshashlikni bildirib, badiiy adabiyotning boshlanishi, birinchi namunalari ma`nosida ishlatilgan.<sup>8</sup> Xuddi shunday misollardan Omon Matjon ijodidagi “Kuz” she`ridan olingan parchada ham uchratishimiz mumkin:

Haq maqsadli odam doim bezovta,  
**Umidning yo`llari** unga bo`lmas unga berk,  
Go`yo eski lip-lip kinoda ota

<sup>5</sup> O. Matjon. Maqsudam. Adabiyot.- T.: 2001.

<sup>6</sup> Savodxon Izohli lug`ati. [Savodxon@gmail.com](mailto:Savodxon@gmail.com). 2014

<sup>7</sup> O`sha manba.

<sup>8</sup> Пинхасов. Хозирги узбек адабий тили. Укитувчи. – Т.: 1969.

Beiz ketgan o‘g‘lin ilg‘ab qolgandek.<sup>9</sup>

Misralarga o‘zgacha ko‘rk va joziba baxsh etayotgan so‘zlardan biri umidning yo‘llari birikmasidir. Ushbu birikmadagi yo‘llari so‘zi umr so‘zi bilan birikib umrning o‘tayotgan vaqtga nisbatini hamda insonning o‘tib boraotgan kunlarini yo‘l deya ta‘riflaydi va shu yerning o‘zida metafora ma‘no ko‘chishidan foydalanadi.

Tishunosligimizda ko‘chma ma‘noli so‘zlardan foydalanishimiz tilimizni yanada boyishiga xizmat qiladi desak, adashmaymiz. Chunki so‘zlarning qancha ma‘no qirralarini ochib foydalanganimiz sari tilimizdagi so‘zlarning soni ham oshib boraveradi. Omon Matjon ham bitta so‘zni turli xil ma‘noda qo‘llagan. Garchi uning ma‘nosi o‘zi bog‘langan so‘z bilan nutq tashqarisida biror tushuncha ifodalama ham kontekstni ichida juda bir ma‘no nozikligini oshirish uchun xizmat qilgan. Yuqorida keltirgn misollarimiz esa hozirgi gapimizning yaqqol isboti bo‘la oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маруза Ж. Словарь лингвистических терминов. – М.: УРСС, 2004
2. О. Matjon. Maqsudam. Adabiyot.- T.: 2001.
3. Пинхасов. Хозирги узбек адабий тили. Укитувчи. – T.: 1969.
4. Savodxon Izohli lug‘ati. [Savodxon@gmail.com](mailto:Savodxon@gmail.com). 2014.
5. О. Matjon. Odamning soyasi quyoshga tushdi. Yozuvchi. T.: 1991.

Research Science and  
Innovation House

<sup>9</sup> О. Matjon. Odamning soyasi quyoshga tushdi. Yozuvchi. T.: 1991.

